

O‘ZBEK ADABIYOTIDA POSHSHOXO‘JANING “MIFTAHOH UL-ADL” VA “GULZOR” ASARIDAGI HIKOYATLARNING BADIY TALQINI VA AXLOQIY MAZMUNI.

Farg‘ona davlat universiteti filologiya fakulteti

Ibrohimova Muslimaxon Umidjon qizi

Anotatsiya: Ushbu maqolada Poshaxo‘janing “Miftoh ul-adl” va “Gulzor” asarlaridagi hikoyatlar badiiy talqini va g‘oyaviy mazmuni tahlil qilinadi. Hikoyatlar orqali ko‘rsatilgan axloqiy va ma‘naviy qadriyatlar — adolat, halollik, saxovat, mehr-shafqat, donishmandlik — o‘rganiladi. Shuningdek, ikki asarning obrazlar tizimi, badiiy uslubi, tarbiyaviy ahamiyati va qiyosiy xususiyatlari yoritiladi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, “Miftahul adl” asari ko‘proq ijtimoiy va siyosiy mavzularni, “Gulzor” esa insoniy fazilatlarni ramziy obrazlar orqali kuchli ifodalaydi. Maqola o‘quvchiga Poshaxo‘janing didaktik adabiyotdagi o‘rni va hikoyatlarning bugungi ma‘naviy tarbiyadagi ahamiyatini tushunishga yordam beradi.

Kalit so‘zlar. “Miftahul adl”, “Gulzor”, Poshshoxo‘ja, obraz, Shayh Bahlul.

Kirish. O‘zbek mumtoz adabiyotida didaktik yo‘nalish alohida o‘rin tutib, unda insonning ma‘naviy kamoloti, odob-axloq mezonlari va adolat tamoyillarini targ‘ib etishga alohida e‘tibor berilgan. Ushbu an‘ana rivojida Poshshoxo‘ja ijodi alohida ahamiyatga ega bo‘lib, uning “Miftoh ul adl” hamda “Gulzor” asarlari Sharq pandnoma va hikoyat nasrining yuksak namunalaridan hisoblanadi. Mazkur asarlar orqali muallif insonning ichki pokligi, odillik, halollik, mehr-shafqat, ilmning qadr-qimmatini kabi umuminsoniy fazilatlarni o‘quvchiga sodda, ammo chuqur ma‘no bilan yetkazadi.

NATIJA VA MUHOKAMALAR

“Miftoh ul-adl” asarida adolatning jamiyat va davlat boshqaruvidagi o‘rni hikoyatlar timsolida bayon qilinadi. Undagi pandlar ko‘proq odil hukmdor, halol amaldor, adolatli inson kabi tushunchalar bilan bog‘liq bo‘lsa, “Gulzor” asarida mehr, saxovat, aql, donishmandlik kabi fazilatlar ramziy obrazlar orqali ifodalanadi. Har ikkala asardagi

hikoyatlar shaklan tushunarli bo'lsada, mazmunan chuqur ibrat va ma'rifiy ruh bilan sug'orilgan.

Poshshoxo'ja hikoyatlarining muhim jihati shundaki — ularning Sharq mumtoz nasridagi an'anaviy pandona uslub bilan uyg'un holda yozilgani, ammo har bir hikoyatning o'ziga xos badiiy talqini va obrazlar tizimiga ega ekanidir. Asarlar o'quvchini nafaqat axloqiy xulosaga yetaklaydi, balki voqea, dialog va ramziy timsollar orqali ma'naviy fikrlashga undaydi. Ushbu maqolada “Miftoh ul-adl” va “Gulzor” asarlaridagi hikoyatlar badiiy talqin, kompozitsion tuzilish, obrazlar tizimi hamda g'oyaviy-axloqiy mazmun nuqtayi nazaridan o'rganiladi. Asar 15 bobdan iborat. Poshaxo'janing o'zbek mumtoz adabiyotga qo'shgan hissasi va hikoyatlarining bugungi ma'naviy hayotdagi ahamiyati yoritiladi.

Hajmi kichik nasriy hikoyatlardan tashkil topgan “Miftoh ul-adl” (“Odillik kaliti”), “Gulzor” asarlari pand-nasihat mazmunidagi ijod etgan Poshshoxo'janing hayoti va faoliyati asosan XX asrning birinchi yarmidan o'rganila boshlagan. Birinchilardan bo'lib, adabiyotshunos olim Abdurauf Fitrat boshlab bergan. Hozirgi kunga kelib o'zning dissertatsiyasida, Marg'uba Mirzaaxmedova quyida Xojaning ijodiga mulohaza bayon etadi. “Fitrat tomonidan “Miftoh ul-adl” hikoyalarining nashr etilishi Xoja ijodini o'rganish va unga dastlabki qiziqish boshlanishidan darak beradi”¹

“Miftoh ul-adl” XVI asrda yaratilgan va u “Gulzor” asarining avtori Poshshoxo'ja Abdulvahobxo'ja o'g'li qalamiga mansubdir. “Miftoh ul-adl”ning muqaddimasidan ma'lum bo'lishicha Shaybonixonning o'g'li shahzoda Temurbekka bag'ishlangan.²

Ko'rinib turadiki “Miftoh ul-adl” o'z nomimi bilan “Odillik kaliti” bo'lib shohning adolat, halolik, odob-axloq va jamiyat boshqaruvidagi mas'uliyat masalalari hikoyatlar orqali yoritiladi. Asar o'z nomiga monand tarzda adolat sifatida talqin qiladi. Muallif hikoyatlar orqali nafaqat hukmdor va amaldorlar, balki oddiy insonlarning ham kundalik hayotdagi axloqiy pozitsiyasini qayta ko'rib chiqishga undaydi.

“Gulzor” Poshsho'ja Abdulvahobxo'ja tomonidan 945/1538-39 yillarda yozilib, Xokim Qora Bahodir Sulton ibn Jonibekka bag'ishlangan.³ Poshaxo'janing “Gulzor” asari

o‘zbek nasrining eng yorqin namunalaridan biri hisoblanadi. Asar hikoyatlar orqali axloqiy va ma’rifiy g‘oyalarni o‘quvchiga sodda va tushunarli tarzda yetkazadi. “Gulzor”da ko‘proq insonparvarlik, mehr-shafqat, donishmandlik va adolat kabi qadriyatlar asosiy mavzu sifatida ko‘tarilgan.

“Gulzor ” asarida Sulton Sanjari, Moziy Sulaymon alayhissalom, Shayh Bahlul, Xorun ar-Rashid va hokozo obrozlarning hayoti hamda faoliyati bilan birgalikda hikoyatlar keltirilgan. Ulardan biri Shayx Bahlul va Xorun Rashid bo‘lib, hikoyatda keltirilishicha, “Ayturlarkim, Shayx Bahlul devona alayhi rahma bir kun Xorun Rashid xalifaning devonxonasiga kirdi. Ko‘rdikim, xalifaning o‘zi haramga bormishdur, ko‘rishga chiqmaydur. Ul devona borib xalifaning taxti ustiga minib o‘ltirdi. Yasovullar Shayx Bahlulni tanimas erdilar. Shayxni tushkil, deb boshig‘a tayoq birlan urdilar. Shayxning bodhidan qon oqaberdi. Ushbu holda Xorunar Rashid haramidin chiqib keldi. Ko‘rdikim, Shayxning boshidan qon oqaturur. Shayx taxtning ustida kulub o‘lturubdur. Halifa Shayxning qohiga adab va ta’zim birla keldi va aytdi: ey Shayx, sizga ne bo‘ldi va ne uchun mundog‘ qilasiz? Shayx aydi: man bir soat saning taxtingda o‘lturdim, ersa urub boshimni yordilar. Salkim, yillardurkim bu taxtning ustida o‘lturubsan, sanning holing ne bo‘lg‘oy deb kulurman. Shayx bu so‘zni degach, xalifa zor-zor yig‘ladi va Shayxning oyog‘iga tushub uzurxohlil qilib, ta’zim va ikrom birlan uzotti...”. ushbu hikoyatda ko‘rishimiz mumkinki, Shayx Bahlul devonaning Xorun ar-Rashidga bergan ibratli sabog‘i tasvirlanadi. Oddiygina holat – bir lahza taxtga o‘tirish va buning oqibatida boshiga tayoq yeyishi – aslida juda chuqur ma’noga ega. Shayx bu bilan xalifaga mulk va hokimiyatning naqadar mas’uliyatli, og‘ir va xavfli ekanini anglatadi. Chunki Bahlul bir necha soniya taxtda o‘tirib shunchalik jabr ko‘rdi, xalifa esa o‘sha taxtda yillar davomida o‘tiradi. Demak, uning zimmasidagi javobgarlik, xalq oldidagi burchi, adolat bilan hukm qilish mas’uliyati beqiyosdir.

Poshshoxo‘ja asarlarida anashunday ibratomuz hikoyatlar kelyirilgan bo‘lib insonni yanada axloqiy hamda ma’naviy yeteklikka choylaydi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsam, Poshshoxo‘janing “Miftoh ul-adl” va “Gulzor” asarlari o‘zbek adabiyotida axloqiy hamda marifiy merosning muhim manbalaridan

hisoblanadi. Bu asarlar orqali muallif adolat, halollik, to'g'rilik, insoniylik, ilmga hurmat, hokimning mas'uliyati, xalq va davlat oldidagi burch kabi masalalarni o'z usuida yoritadi. Asarlarda berilgan pandu-nasihatlar, hikoyatlar, obrazlar va ramziy talqinlar nafaqat o'sha davr ijtimoiy hayotining aks-sadosi, balki bugungi kun axloqiy tarbiyasiga ham mos tushadigan umuminsoniy g'oyalarni aks ettiradi.

“Miftohi ul-adl”da adolatning davlat boshqaruvidagi o'rni, zolimlikning oqibati va rahbarning odil bo'lishi zarurligi markaziy g'oya sifatida ilgari suriladi. “Gulzor”da esa insonning o'z nafsini poklash, go'zal xulq va ma'naviy kamolot sari intilishi haqida o'git beradi. Har ikki asarda badiiy talqinlar sodda, ta'sirli va xalqona bo'lib, o'quvchini umumiy xulosalar chiqarishga undaydi. Shunday qilib, Poshshoxo'janing mazkur ikki asari o'zbek adabiyoti va axloqiy tafakkuri taraqqiyotida muhim o'rin tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Mirzaaxmedova M. Xoja. Toshkent. “Fan”, 1975.
2. Пошшоҳужа “Мифтоҳ ул-адл” ва “Гулзор” дан, УзССР Давлат бадий адабийотнашироти – Тошкент .1962.
3. Xojaning “Miftohi ul-adl” asari, N 7796 inventar raqamli qo'lyozmasi.